



“UZSELXOZTEXNIKA” BIRLASHMASINING QISHLOQ XO‘JALIK TEXNIKASINI TA’MIRLASHDAGI ISHIROKI

Toyirov Sanjarbek Saydali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Maqolada “Uzselxoztexnika” birlashmasining O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi texnikalarini yetkazib berish, ularni ta‘mirlash va servis xizmati ko‘rsatishdagi o‘rni hamda tarixiy rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Unda birlashmaning tashkil topishi, uning asosiy vazifalari, xizmat ko‘rsatish hududlari, texnik parki va ta‘mirlash korxonalari faoliyati arxiv hujjatlari, statistik ma‘lumotlar va ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda texnik resurslar bilan ta‘minlashning ahamiyati, shuningdek, “Uzselxoztexnika”ning texnika modernizatsiyasi, ehtiyot qismlar bilan ta‘minlash, brigadalar orqali o‘rnatilgan servis tizimi va mexanizatorlar tayyorlashdagi roli o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Uzselxoztexnika, qishloq xo‘jaligi texnikasi, ta‘mirlash tizimi, servis xizmati, ehtiyot qismlar, mexanizatsiya, agrotexnika, modernizatsiya, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, texnik xizmat ko‘rsatish markazlari.

Qishloq xo‘jaligi texnikasi birlashmasi tashkil etilgan vaqtdan boshlab xo‘jaliklarni texnika bilan ta‘minlash, ta‘mirlash kabi ishlarini bajarish vazifasini olgan bo‘lib, undan tashqari kolxoz va sovxozlar ishlab chiqarishiga ko‘maklashish vazifalarini ham bajarilishi lozim edi.

Biroq, “Uzselxoztexnika” tizimidagi ta‘mir ishlari to‘liq amalga oshirilmadi. Bunday kamchiliklar deyarli barcha qishloq xo‘jalik texnikasida



uchradi. Korxonalardan chiqarilayotgan mashinalarni o'zi boshidan talab darajasida yig'lmaganligi sababli bu mashinalardan uzoq vaqt foydalanishni ham iloji bo'lmagan. Masalan, 1961-yilning o'zida 1275 ta mashina paxta terimiga tushirilmagan. Agar har bir mashina 60-70 tonnadan paxta terganda ham 76500 tonna bo'lar va bunga qo'lda paxta terish uchun 12750 nafar kishi jalb etilishi kerak edi. Zavoddan to'g'ri chiqib kelgan mashinalarni dalaga bir marotaba kirgandan so'ng, uni qayta ko'rib, kamchiligini ta'mirlab, keyin yana dalaga tushirish talab qilinar edi. Tabiiyki, bunga ulugurishning imkoni ham yo'q edi. Avvalo, mutaxassislar yetishmas, yoki uskunalar o'z vaqtida keltirilmas, yoki sun'iy navbat hosil qilinar edi. Masalan, 1962-yil 20-iyunga qadar paxta terish mashinalarining 20 foizi, ko'rak chuvish mashinalarining 21 foizi ta'mirlandi. Ayniqsa, bu borada Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm oblastlari "Uzselxoztexnika" birlashmalari va Qoraqalpog'iston ASSR ortda qoldilar. Qoraqalpog'iston ASSR "Shumanay" sovxozida mavjud 100 ta traktordan 49 tasi ta'mirlab, paxta yig'imiga tayyor qilib qo'yilgan. Belgilangan grafikka ko'ra sovxoz ustaxonasida ta'mir ishlarida 50 nafar ishchi ishlashi kerak bo'lgan, biroq, ishchilar soni 12-13 nafardan oshmagan. Natijada 88 ta pritseptdan 41 tasi, 42 ta ko'rak chuvish mashinasidan 9 tasi ta'mirdan chiqarilgan.

Belgilangan rejalarga ko'ra 1963-yilda respublika xo'jaliklarida paxta ekiladigan maydonlarni ikki tomonlama parvarish qilish va paxta teradigan mashinalarni shay qilib qo'yish vazifalari tomoshirildi. 1963-yilda birlashmaning oblast bo'limlari 246 ta kolxozga xizmat qildi. Bu tabiiyki, mexanizator, kolxozchi va sovxoz ishchisi, qishloq xo'jalik mutaxassislari, kolxoz va sovxoz rahbarlari, "Uzselxoztexnika" rayon bo'limlarining xodimlaridan juda qisqa muddat ichida har bir traktorni, har bir qishloq xo'jalik mashinasini ekish kompaniyasiga shaylab qo'yishni talabnoma asosida bildirishlari lozim edi. O'zbekiston SSR Statistika boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra 1963-yilning 28-fevralgacha Samarqand oblastida 5676

chopiq traktoridan 3377 tasi, Sirdaryo oblastida 5486 chopiq traktoridan 3376 tasi ko'klam ekishga taxt qilib qo'yilgan. Buxoro, Xorazm oblastlari va Qoraqalpog'iston ASSRda ham traktor va qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash ortda qoldi. Andijon, Farg'ona oblastlaridagi rayon bo'limlarida ham mana shu holat takrorlangan. Bu bo'limlarda ehtiyot qismlari ham yetishmadi. "Uzselxoztexnika" birlashmaning oblast bo'limlari 1963-yilda 156 ta iqtisodiy qoloq kolxozlarga kompleks texnik xizmat ko'rsatdi. Lekin, bu yerda ham oqsashlar bo'lib, Namangan, Qarshi, Denov ta'mir zavodlari D-54, D-24 dvigatellarining 837 tasini ta'mirlamaganlar. Eskirgan uskunalarni ta'mirlash ishlari esa umuman bajarilmagan. Leninsk, Qarshi, Dalvarzin, Denov zavodlari dvigatellar va boshqa uskunalarni ta'mirlash ishlarida harajatni ko'paytirib yuborganlar.

Traktor ta'mir ustaxonalarida ish Sirdaryoda 23 foizga, Farg'onada 43 foizga bajarildi. Masalan, Poyariq tumanidagi "Lenin" nomli kolxozda ishga tushirilgan traktor dalaga chiqqan birinchi kundayoq dvigatel buzilgan. Chinobod rayon "Kirov" nomli kolxozda "Universal" traktori ham shunday bo'lgan. Podshipniklar ishlamagan, ta'mir ishlarida kadrlarning uquvsizligi, yangi texnikaning amaliyotga jalb etish ishlari o'lda-jo'lda qolib ketdi. Andijon viloyati Baliqchi tumanida ta'mir uchun ustaxonaga keltirilgan 249 ta chopiq traktoridan faqat 66 tasi ta'mirlanganligi aniqlangan. Bu holat respublikaning boshqa hududlarida ham uchradi.

1964-yil 7-iyulda O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Uzselxoztexnika" birlashmasida eskirgan uskunalarni tiklash va uni yetkazish ishlarining qoniqarsiz tashkil etilganligi to'g'risida"gi qarori chiqdi. Unda ikki yillik tajriba bo'lsada, eskirgan uskunalarni ta'mirlash va ta'mir joylariga yetkazish ishlari o'ta qoniqarsiz ekanligini ta'kidladi. Jumladan, 1964-yil 1-avgust holatiga 7 oy davomida 1093,9 ming rubllik uskunalarni tiklash ishlari amalga oshirilishi lozim bo'lgan holda bu 724,7 ming rublga yoki 66,2 foizga bajarilgan. Markazlashgan tiklash ishlari 58,8



foiz, shaxsiy ehtiyoj uchun 71,0 foizga bajarilgan. Ayniqsa, bu Xorazmda o'ta qoniqarsiz holatda bo'lgan. Yil boshidan 1 avgustga qadar 37,8 foizga bajarilgan. Shuningdek, Farg'ona oblastida 39,9 foiz, Sirdaryo oblastida 50,2 foiz, Toshkent oblastida 52,7 foiz, Qoraqalpoq ASSRda 55,2 foizga bajarilgan. Dalvarzin ta'mir zavodida bo'lsa ta'mir ishlari 0,49 foizga bajarilgan. To'rt nomdagi ta'mirtalab uskunalarni ta'mirlab ham bo'lmagan. Nukus ta'mir zavodida reja 1,5 foizga bajarilgan. Besh nomdagi kerakli uskunar ta'mirlanmagan. Yuqorichirchiq ta'mir ustaxonasida reja 15,0 foizga bajarilgan va 6 nomdagi uskunar umuman ta'mirlab bo'lmaydigan darajada kelib qolgan. Shu munosabat bilan "Uzselxoztexnika" birlashmasi oblast birlashmalari rahbarlarining bir qanchasiga ogohlantirish berildi. Ta'mirlash va eski uskunalarni topshirish ishlari bo'yicha qator vazifalar ham berildi.

Uskunalarni tashish, tushirish kabi holatlarda ham e'tiborsizlikka yo'l qo'yilgan. Oblast savdo bazalari rahbarlari bu ishlarga umuman e'tiborsiz bo'lganlar. Ko'pgina rahbarlar "Uzselxoztexnika"ning eski uskunalarga yangi uskunalarni almashtirish bo'yicha talabini bajarmagan holatlarga e'tiborsiz qaraganlar. Natijada bazalardagi uskunar hisobi rejadagiga to'g'ri kelmagan. Eski uskunar keltirilganda ro'yhatga olinmagan. Uskunar ochiq yerlarda zanglab, qayta tiklab bo'lmagan darajada qolib ketgan.

Bunday uskunar orasida sharikli va rolikli uskunar ko'plab uchragan. Hatto, temir uskunalarni ko'tara olmaslik oqibatida yerga tushib, sinib ketgan holatlari ham bo'lgan va ularni qayta tiklashni imkoni bo'lmagan. Bosh muhandislar, direktorlar, maxsus ustalar bu ishlarga e'tiborsiz qaraganliklari alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti partiya – davlat nazorati komiteti Farg'ona oblastining Oxunboboyev, Kirov ishlab chiqarish boshqarmalarida yig'im-terim texnikasini tayyorlash ishlari nazoratdan o'tkazdi. O'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra 1964-yil 20-avgustgacha Oxunboboyev ishlab chiqarish boshqarmasidagi xo'jaliklarda 117



ta mashinadan 173 tasi, Kirov ishlab chiqarish boshqarmasida 203 ta mashinadan 162 tasi ta'mirlandi. Ko'sak chuviydigan mashinalarni va paxtani qop-qanorsiz tashiydigan pritseplarni tayyorlashda kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Oxunboboyev boshqarmasidagi xo'jaliklarda ta'mir qilingan 109 ta mashinani ko'zdan kechirganlarida, shundan 59 tasi ko'pgina nuqsonlar bilan bo'lgan. Kirov ishlab chiqarish boshqarmasida ko'zdan kechirilgan 48 ta mashinaning barchasi ishga yaroqsiz bo'lib chiqqan. Traktorlarni ta'mirlash ishlari 1960-yilda 165 rub. 36 kop. bo'lgan bo'lsa, 1962-yilda 165 rub. 36 kop. ka tushgan, 1965-yilda bo'lsa 133 rubl. 97 kop.ka tushgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, "Uzselxoztexnika"ning Oxunboboyev rayon birlashmasida va ko'pgina kolxozlarda texnikani qabul qilib olish komissiyalari faoliyatsizlik ko'rsatganlar. Davlat texnika nazorati bo'yicha inspektorlar ta'mirning barcha xo'jaliklarda texnikani tayyorlash sifatini nazorat qilmaganlar, paxta terib olish texnikasini qabul qilib olishda qatnashmaganlar. Ta'mir ishlari talabga javob bermagan. Mashina yuvish uskunalari ishlamagan. Uskunalarining kamchiliklari ko'p bo'lgan, ta'mirdan so'ng traktorlar sinab ham ko'rilmagan. Bu holatlar Pop, Jomboy, Guliston, Farg'ona, Sho'rchi, Gur-lan, Chimboy, Kegayli rayon birlashmalarida, Samarqand, Nukus, Urganch ta'mir zavodlaridagi ta'mir ishlarida juda katta kamchiliklar bilan bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Ўз МА Р-2469, рўйхат – 2, йиғма жилд – 18, - варақ – 7.
2. Техникани шайланг // Қизил Ўзбекистон. 1963 йил 6 март.
3. Ешимбетов Р. Ремонтни қачон тугаллайсиз // Қизил Ўзбекистон. 1964 йил 13 сентябрь.
4. Чорвачиликдаги ишларни комплекс механизациялаш ҳақида // Совет Ўзбекистони. 1972 йил 31 март.